

SUITSIDUAL AXLOQ

*Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-
iqtisodiyot fakulteti Pedagogika va
psixologiya yo`nalishi 405-gurux talabasi
Ergasheva Nazifaxon Maxpirali qizi
Ilmiy rahbar: Suleymanova.T.G*

Annotatsiya: Maqolda suitsidual axloqning qadimgi ko`rinishlari, suidsid jarayonlarining sodir etilishiga majbur qilingan shart sharoitlar haqida keng ma`lumotlar berib o`tilgan, Xususan, tadqiqotchilar tomonidan suitsidal axloq borasidagi o`z qarashlari ham mazkur maqoladan joy olgan.

Kalit so`zlar: suitsidal xulq-atvor, dezadaptatsiya, autodestruktiv, xulq, shaxs, salomatlik.

So`nggi vaqtlarda nafaqat xorij o`lkalarida, balki O`zbekistonda ham o`zini osib qo`ygani, yoqib yuborgani xususida xabarlar elas-elas qulog`imizga chalinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida, Qoraqalpog`iston Respublikasida, Farg`ona vodiysida shunday holatlar qayd etildi. O`zjoniga qasd qilganlarning ayrimlari tirik qolgan bo`lsa, boshqalari Alloh bergan ulug` ne`matlardan biri tiriklikdan o`z qo`llari bilan mahrum bo`lishdi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko`ra, o`z joniga qasd qilish shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi natijasi hisoblanib, bunda odam ushbu yuzaga kelgan sharoitlarda bundan buyon o`zi uchun mavjud bo`lish imkoniyatini ko`rmaydi. Shaxs dezadaptatsiyasining ehtimoliyligi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik davrlarida ob`ektiv ravishda ortadi, bu esa o`zini-o`zi o`ldirish statistikasida o`zining haqiqiy aksini topadi. Ayniqsa, ijtimoiy ko`tarilish pasayish bilan almashganda «umidlarni yo`qotish vaqti» keskin bo`lib qoladi, bu esa jamiyat ongining krizisini chuqurlashtiradi, jamiyat a`zolariga zulmkor ta`sir o`tkazadi va uning zaiфроq a`zolarining ixtiyoriy ravishda hayotdan voz kechishiga yordam beradi. Bu esa tanazzulni boshidan o`tkazayotgan va rivojlanish istiqboliga ega bo`lmagan jamiyatda ko`proq namoyon bo`ladi.

Dezadaptatsiyaning keskin holati og`ir kasalliklar, hayotdagi omadsizliklar, yaqin odamini yo`qotish oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday holatda shaxsning ijtimoiyruhiy dezadaptatsiyasi og`irligi va chuqurligini baholashning uchta tarkibiy qismini ko`rib chiqish mumkin: \rightarrow odatiy turmush sharoitlarining jiddiy buzilishi; \rightarrow ularning inson tomonidan talqin qilinishi (hayotiy sinish, ilojsiz vaziyat, shaxsiy halokat yoki og`ir, lekin o`tib ketuvchi holatdir); \rightarrow moslashish uchun istak

yoki harakat qilishga tayyorlik (hayotdan charchash, «hayotni qayta boshlash»ni istamaslik, bu haqda kelgan fikrdan nafratlanish yoki hayotiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor turish, vaziyatni uddalash).

O‘z joniga qasd qilish muammosi kishilik jamiyatining ilk davridan tortib, to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy voqelikdir. Bunda nafaqat shaxsning hayotdan ko‘ngilli ravishda ketish holatiga nisbatan munosabatlarning o‘zgarishini kuzatish mumkin, balki o‘z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan kishilik jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida va turlicha madaniyatlarda munosabat o‘zgacha bo‘lganligi ham kuzatiladi.

Qadimda deyarli barcha xalqlarda urf-odat tusiga kirgan o‘z joniga qasd qilish marosimi (rituali) mavjud bo‘lgan. Qadimgi odat va rasm- rusumlar orasida o‘z joniga ixtiyoriy qasd qilish qariyalar, harbiy yurishlarida hamda ovlarda foydasi tegmagan qabilaning a‘zolari tomonidan sodir etilishi o‘ziga xos qonun tariqasiga kirgan bo‘lsa, yosh erkak yoki ayol jinsiga mansub qabila a‘zolari tomonidan o‘z joniga qasd qilinishiga «tabu» (ta‘qiq) qo‘yilgan edi.

Qadimgi Xitoyda o‘zini ko‘ngilli ravishda xudolar uchun qurbonlikka bag‘ishlash, uy yoki ibodatxona qurilishida o‘z joniga qasd qilish sodir etilgan. Bunda marhum ruhining imoratni yovuz kuchlardan qo‘riqlashiga ishonishgan. Qadimgi Hindistonda esa o‘z joniga qasd qilish holatlari cho‘ktirish yoki o‘zini yoqish, shuningdek ommaviy ravishda yirik g‘ildiraklar ostiga tashlab o‘zini qurbon qilish ko‘rinishida keng tarqalgan edi. Buddizm tarafdorlari alohida vaziyatlarda monarxlarning marosimlarida o‘z joniga qasd qilishlariga ham yo‘l qo‘yib berishgan.

Shu o‘rinda beva ayollarning o‘z joniga qasd qilishlari haqida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Jumladan, Rim va slavyan madaniyatlarida bevalar tomonidan sodir etiluvchi suitsid ularning o‘z turmush o‘rtoqlariga sodiqligining isboti hisoblangan. Beva ayollarning o‘zini o‘zi yoqishi hind-oriy xalqlarida keng tarqalgan odat bo‘lib, Hindistonda ommaviy xususiyat kasb etib, yaqin davrlargacha saqlanib kelgan.

Qariyalar tomonidan hosilsizlik va qurg‘oqchilik yillarida o‘z joniga qasd qilinishi, katta avlod vakillarining ulug‘ yoshga kirganidan so‘ng «o‘lim vodiysi»ga yo‘l olishiga doir tarixiy dalillar mavjud. Uzoq umr ko‘ruvchi yoglar ma‘lum bir yoshga yetgach, o‘z ixtiyorlari bilan hayotdan ketishlari mumkin bo‘lgan. Yapon madaniyatida (samuraylarda) o‘z joniga qasd qilish muqaddaslik gardishi bilan yo‘g‘rilgan va har doim marosimiy xususiyatga ega bo‘lgan.

Tadqiqotchi T.Suleymanovanning ma‘lumotlariga ko‘ra, tark etilganlik va yolg‘izlik hissi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘ngilli tarzda o‘z hayotini tugatish haqidagi birinchi yozma manbalardagi eslatma Qadimgi Misr madaniyatiga tegishli bo‘lib, tadqiqot muallifining e‘tirof etishicha, Qadimgi Misr sivilizatsiyasining ma‘lum davrlarida o‘z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan munosabat anchagina tolerantlik xususiyatiga ega bo‘lgan. Qadimgi Hind qonunlarida marosimli o‘lim va bevalar

suitsidiga yo‘l qo‘ygan holda maishiy xususiyatga ega bo‘lgan autoagressiya qoralanib, buddizmning falsafiy konsepsiyasida o‘z joniga qasd qilish keskin qoralanmaydi. Hayotdan ko‘ngilli ketish, qayta tug‘ilishning cheksizlik g‘ildiragini to‘xtatmaydi, ammo hayvon yoki iblis ko‘rinishida qayta tug‘ilishga olib keladi, deb ta’kidlanadi¹.

Antik dunyoda o‘z joniga qasd qilishga munosabat chidash va ba’zi hollarda rag‘batlantirishdan to qonun bilan man etishgacha almashinilib turgan. Qadimgi Yunonistonda jinoyatchiga ommaviy qatlni yoki o‘z joniga qasd qilishni tanlash imkoniyati berilgan. Shuning uchun o‘z joniga qasd qilish hayot bilan o‘lim o‘rtasidagi tanlashning erkinligi va ijodiy akti hisoblangan. Qadimgi yunon faylasufi Diogen Sinopskiy, afsonaga ko‘ra, nafasini to‘xtatish bilan o‘z joniga qasd qilib, hayotini tugatgan.

Yunon falsafasida o‘z joniga qasd qilish muammosi ilk marotaba nazariy asoslangan va dastlabki ilmiy talqinini topgan.

Pifagor hayotni tangri tomonidan berilgan mohiyat sifatida tasavvur etib, inson unga bo‘ysunishi lozim deb hisoblagan. Uning bunday xulosaga kelishiga sonlar nazariyasi sabab bo‘lib, unga ko‘ra, aynan bir vaqtda faoliyat yuritadigan ma’lum miqdordagi ruh mavjuddir. O‘z joniga qasd qilish esa ma’naviy matematikaning muvozanatini buzadi. Chunki bunda dunyoda tasodifiy bo‘shliq shakllanadi².

Arastu suitsidni davlat maqsadlariga qarshi qaratilgan harakat sifatida baholab, bunday harakat jazolanishi kerak deb hisoblagan. Rim tarixi o‘zida buyuk insonlar Katon, Antoniy, Suqrot, Seneka kabilarning o‘z joniga qasd qilishi holatlari guvohligini saqlab kelgan.

Rim imperiyasining oxirgi davrlariga kelib zodagonlar suitsidiga hurmat bilan qarab kelinishi bilan bir vaqtda, qullar tomonidan sodir etiladigan o‘z joniga qasd qilish holatlari epidemiyaga aylana boshlagan.

O‘z joniga qasd qilishni birinchi bo‘lib IV asrda avliyo Avgustin qoralab chiqdi. U suitsidni diniy ta’limotni buzuvchi qotillikning shakli deb hisoblaydi. Avliyo Avgustin jamiyatning suitsid holatiga nisbatan jinoyat sifatida qarashini oqlagan holda to‘rt dalil, ya’ni asosni keltirib o‘tadi:

- aybdor inson o‘lim huquqiga ega emas (aybi bo‘lmagan holda aybdordek o‘lishi mumkin emas);
- o‘z joniga qasd qiluvchi o‘z jonini olar ekan, u insonni o‘ldiradi;
- sofdil ruh barcha azob-uqubatlarni yengib o‘tadi;
- o‘z joniga qasd qilgan gunohkorlarning eng yomoni sifatida o‘ladi.

Foma Akvinskiy XIII asrda o‘z joniga qasd qilishni qat’iy qoralab, o‘z joniga qasd qilishlik quyidagi sabablar tufayli noto‘g‘ri harakatdir deb hisoblagan:

¹ Ambrumova A. G., Borodin S. V., Mixlin A. S. O‘z joniga qasd qilishning oldini olish. M., 1980 yil. -105 b

² Efremov V. S. O‘z joniga qasd qilish asoslari. Spb., 2004.-479 b

- o‘z joniga qasd qilishlik tabiat qonunining buzilishi bo‘lib, unga ko‘ra «har bir tabiiy narsa o‘zining mavjudligini saqlashi zarur» va o‘zini sevishi lozimdir;
- bu axloq qonunining buzilishidir, chunki bunday harakat asosida o‘z joniga qasd qilgan inson jamiyatga ziyon yetkazadi;
- o‘z joniga suiqasd qilishlik tangri qonunining buzilishi bo‘lib, unga ko‘ra inson bo‘ysunishi lozim va hayotdan mahrum qilish huquqi faqatgina ollohga tegishlidir³.

Suitsidal xulq tadqiqotchilar tomonidan autodestruktiv (o‘zini o‘zi mahkum etuvchi) xulq tarzida ko‘rib, uning belgisi sifatida o‘z shaxsi va salomatligini ongli ravishda buzish tendensiyasi namoyon bo‘ladi degan xulosaga kelingan.

K.Ozvatning fikricha, autodestruktiv xulq-atvor bexosdan yoki haddan ziyod kuchli zo‘riqishli (stressli) ta‘sir natijasida xulqning individual mexanizmlarining pand berishi yoki yetarlicha emasligi oqibatidir.

Amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida R.F.Baumister, S.J.Cherlar autodestruktiv xulqning uch tipini ko‘rsatib o‘tishadi⁴:

Birlamchi autodestruksiya - individ o‘ziga zarar yetkazishga urinadi va ongli ravishda uni amalga oshiradi. Bunday xulq asosini insondagi kuchli salbiy emotsiyalar tashkil etib, o‘zining kamchiliklariga diqqatning qaratilishi tufayli, o‘ziga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi.

Ikkilamchi autodestruktiv xulq atvorning qarama-qarshi tomoni sifatida samarasiz strategiya bo‘lib, insonlar ezgu maqsadlarga intilishadi, ammo samarasiz strategiyani qo‘llagan holda o‘zlariga ziyon-zahmat yetkazishga urinadi.

Uchinchi autodestruktiv tipida inson o‘zaro bir-birini istisno etuvchi ikki maqsadni ko‘zlaydi. Bir necha qarama-qarshi maqsadlar doirasidan birini tanlash, unga sarflangan harakatlar ijobiy natijalardan yuqori bo‘lib, fikrlarda xatoliklar mavjud ekanligidan darak beradi.

Suitsidentlar uchun nisbatan tashqi lokus - nazoratning namoyon bo‘lishi xarakterlidir. Mazkur dalil shundan guvohlik beradiki, suitsidentlar o‘zlarining harakatlari, shuningdek, hayotlarida sodir bo‘lgan voqealar uchun javobgarlikni o‘z zimmlariga olmasdan, balki uni taqdirga, tasodifga, boshqa odamlarga yuklatishadi⁵.

Emotsional yo‘g‘rilgan dominantli kechinmalar qiyin vaziyatlardan chiqib ketishning oddiy sharoitlarda ma‘lum bo‘lgan variantlaridan foydalanish imkoniyatini vaqtincha to‘siq qo‘yadi. Xuddi shu vaqtda yakunlanmagan suitsiddan so‘ng, o‘z hayotiga suiqasd qilganlarning ko‘pchiligi nizoli holatdan chiqib ketishning bir nechta yo‘lini sinab o‘tib, sodir etilgan harakatga yetarlicha tanqidiy munosabatda bo‘lishadi.

³ Qarshibayeva G. A., & Eshmuratov, O. E. (2018). O‘smirlarning xatti-harakatlarini shakllantirishga ta‘sir qiluvchi o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlari omillari. *Yosh olim*, (49), 235237.

⁴ Abramova A. G. O‘z joniga qasd qilish muammosida shaxsning roli. Tr. Moskva shahri RSFSR sog‘liqni saqlash vazirligining psixiatriya ilmiy-tadqiqot instituti. M., 1981 yil. -89 sahifa

⁵ Qarshiboeva G “Suitsidal xulq-atvorning nazariy asoslari”. Maqola 2023 yil

Suitsidal fikrlar bosqichida suitsidal jarayon to‘sib qo‘yilishi, qaytarilishi yoki o‘zining rivojlanishini davom ettirishi ham mumkin. Shu bois, suitsidal faollikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik omillarni o‘z vaqtida aniqlash hamda suitsidal ustanovkalarni inobatga olish lozim. D.N.Uznadzening ma‘lumotlariga ko‘ra, ustanovka - bu ma‘lum bir harakatlarni sodir etishga psixofiziologik jihatdan tayyorlik bo‘lib, u inson xulq-atvorini tartibga soladi, uni maqsadga yo‘naltiradi.

O‘zini-o‘zi o‘ldirish o‘z ahamiyati va psixologik sabablariga ko‘ra farqlanadi. Ular negizida ko‘pincha ongli yoki ongsizravishda yaqin insonlariga bo‘lgan tuyg‘uga yoki jamoatchilik fikriga apellyatsiya-sabab, atrofdagilardan yordam va madad olishga intilish yotadi. Bu holda o‘z joniga qasd qilish harakatlari namoyishkorona tus olishi, haqiqiy yoki taqlid bo‘lishi yoki shantaj (qo‘rqitish) bo‘lishi mumkin. Ular ko‘pincha bironing ko‘zi oldida yoki birontasi kelib qolishidan bir necha daqiqa oldin sodir etiladi, ularning usuli ko‘pincha jiddiy tahdidni ifodalamaydi – uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda dori tabletkalari qabul qilinadi, teri uncha chuqur bo‘lmagan darajada kesiladi, ingichka yoki eski arqon qo‘llaniladi, eshiklar ochiq qoldiriladi.

Ahamiyatiga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish yolg‘izlik, og‘ir judolik va hokazolar natijasida o‘zini o‘zi o‘ldirayotgan kishining hayotdan to‘liq chetlashganligidan farqli o‘laroq o‘zini-o‘zi o‘ldiruvchilarning hayotga kirishganligini bilvosita bildirgan holda, qilmishning, ziddiyatli vaziyatdan chiqib ketishning paradoksal xarakteriga ega bo‘lishi mumkin (bahsdagi so‘nggi, rad etib bo‘lmaydigan dalil kabi).

O‘z joniga qasd qilish genezisida oilaning, kishiga eng yaqin ijtimoiy muhitning rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Er-xotin, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro oilaviy munosabatlar xarakteri shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi rivojlanishida favqulodda ahamiyatga ega. Oila ichidagi muhit shaxsning suitsidogen ko‘rinishlarini samarali qoplash, silliqlashtirishga qodir, lekin kuchaytirishi yoki hatto qo‘zg‘atishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ambrumova A. G., Borodin S. V., Mixlin A. S. “O‘z joniga qasd qilishning oldini olish”. M., 1980 yil.
2. T Suleymanova “Dezadaptatsiya va uning o‘smir xulqida namoyon bo‘lishi” O‘quv qo‘llanma. Andijon – 2021
3. Dyurkgeym E. “O‘z Joniga Qasd Qilish”. // S. Q.: Soyuz, 1998 yil.496 sahifa
4. Qarshiboyeva G. “O‘zligingni angla”. Jspi ilmiy nashrlari arxivi, 1-52.
5. Qarshibaeva G. A. o‘z joniga qasd qilish xatti-harakati bo‘lgan o‘spirinlarning psixologik xususiyatlari muammosining nazariy asoslari. Yosh olim, (49), 230233.
6. Shoumarov G.B., Sog‘inov N. A., Kodirov U. D., Palvonova Z. D. O‘z joniga qasd qilishni tadqiq qilish: muammmo va yechimlar. Uslubiy qo‘llanma. (O‘z joniga qasd

qilgan xulqning oldini olish bo'yicha ishlovchi ishchi g'uruh a'zolari uchun). // Masul muharrir. - T., 2020 yil. -138 b.

7. Qarshiboeva G.A “Suitsidal xulq-atvorning nazariy asoslari”. 2023 yil.

